

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

Bugungi kunda viloyatda 4 440 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soniga nisbatan yuqori ulushga ega 1 223 tasi (27,5 %) Andijon shahriga, 532 tasi (12,0 %) Andijon tumaniga, 339 tasi (7,6 %) Asaka tumaniga, 329 tasi (7,4 %) Shahrixon tumaniga va 266 tasi (6,0 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-may holatiga ko'ra



II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Sanoat - bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar-aprel oyida viloyat korxonalari tomonidan 30 164,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

	Hajm mlrd so'm	Fizik hajm indeksi %
Andijon viloyati	30 164,8	107,2
Andijon sh.	4 988,1	112,5
Xonobod sh.	1 235,1	109,5
<i>Tumanlar</i>		
Oltinko'l	671,4	110,9
Andijon	445,7	108,2
Baliqchi	1 203,1	110,2
Bo'ston	309,3	110,2
Buloqboshi	547,5	121,4
Jalaquduq	646,4	115,1
Izboskan	365,7	113,6
Ulug'nor	285,3	114,4
Qo'rg'ontepa	1 110,7	114,6
Asaka	13 169,4	95,6
Marhamat	582,6	116,5
Shahrixon	1 136,6	115,3
Paxtaobod	664,9	116,7
Xo'jaobod	1 029,6	112,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Andijon viloyatida 2025-yilning yanvar-aprel oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 8 699,2 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Xo'jaobod tumanida (110,6 %), Paxtaobod tumanida (114,6 %), Shahrixon tumanida (113,0 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar-aprel oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025 - yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 29 035,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,3 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 636,0 mlrd so'm (2,1 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 426,1 mlrd so'm (1,4 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 66,9 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2025 - yilning yanvar-aprel oylarida
2025-yilning yanvar-aprel oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025 yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 74 075 dona yengil avtomobillar (2024 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 51,1 % ga kamaygan), 8,0 ming tonna Neft (18,8 % ga ko'paygan), hamda 15,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (13,5 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel*	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel
Yumshoq bug'doy va spelta uni	50,5	56,6	113,5
Paxta tolasi	136,6	92,1	7,5 m
Neft	98,1	188,5	118,0
Paxta chigiti	84,1	108,7	56,0
Paxtadan yigirilgan ip	42,1	128,2	81,2
Temir yoki po'lat simdan	166,6	103,1	16,7
matolar, panjaralar, to'rlar			
Yengil avtomobillar	81,5	142,1	91,0
80 % dan kam bo'lmagan etil spirti	101,5	101,3	77,5

**2023-2024-yillar yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024 yilning yanvar-aprel oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 61,4 % (73,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,7 % (1,9 %), quyi texnologiyali esa 34,9 % (25,0 %)ni tashkil etgan.






Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-aprel oylarida

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo'linib, 4 kishigacha mo'ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-aprel oyida 44 747 dona “Cobalt” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,36 % ga oshdi), 14 092 dona “Tracker” (18,0 % ga kamaygan), 15 236 dona “Onix” (31,6 % ga oshdi) ishlab chiqarildi.

**Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish,
donada**
yanvar-aprel oylarida



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat
korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2025 - yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 3,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel*	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	136,3	147,6	172,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2,5	0,0	0,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 4,3 % ga kamaygani kuzatildi. Shuningdek, Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 15,0 % ga kamaganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel*	2024-yil yanvar-aprel*	2025-yil yanvar-aprel
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	31,9	57,9	49,2
Oqava suvlarning shlami - mlrd so'm	5,9	11,8	11,3

**2023-2024-yillar yanvar-aprel oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 720,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat – bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>



Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi



Ijrochi:
O'. Karimov
74 224-80-00 (6012)
